



XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


XORAZM VILOYATIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI ASOSIY KO'RSATKICHLARI



2023- YIL


2023- yilning yanvar-may oylari uchun Xorazm viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-may oylarida Xorazm viloyatida jami 1 766,1 mlrd soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2022- yilning mos davriga nisbatan 106,5 % ni tashkil etdi.




Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.



Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli davlat va nodavlat boʻlgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʻlinadi.


Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu — oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Joriy yilning yanvar-may oylarida jami qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **141,5 mlrd so'mni** tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022- yilning mos davriga nisbatan **1,5 % ga ko'payib**, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2022- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **8,0 %ni** va **6,5 %ni** tashkil etdi.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, % da



O'SISH SUR'ATI 106,5 %



2022- yil
yanvar-may




2023- yil
yanvar- may

Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Urganch tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **26,0 %** i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **5,3m ga**), Xonqa tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **25,9%i** yoki 2022- yilning yanvar-may oyiga nisbatan **167,5 %**) va Urganch shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **25,3 %i** yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **71,3 marta**) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2023- yilning yanvar- may oylariga kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 65,5 %i to'g'ri kelib, 2022- yilning yanvar- may oyidagi ko'rsatkichiga nisbatan 0,01 %ga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 106,4 % ni tashkil etgan holda 1156,9 mlrd. so'm miqdorida bajarildi.




Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi %da




Ma'lumot uchun: joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Urganch shahriga (296,1 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 25,6 %) va Xiva tumaniga (138,0 mlrd. so'm yoki 11,9 %) to'g'ri keldi.

Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **123,1** mlrd so'mlik, nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **1 642,9** mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **7,0 %** va **93,0 %**ni tashkil etdi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari





2023- yilning yanvar-may oyida hududlar kesimida mulkchilik shakllari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
Xorazm viloyati	1 766,1	123,1	7,0	1 642,9	93,0
Urganch sh.	404,4	28,3	7,0	376,1	93,0
Xiva sh.	120,7	11,0	9,1	109,7	90,9
tumanlar:					
Bog'ot	106,3	0,0	-	106,3	100,0
Gurlan	81,7	11,4	13,9	70,4	86,1
Qo'shko'pir	110,7	11,1	10,1	99,6	89,9
Urganch	155,4	0,0	-	155,4	100,0
Hazorasp	130,9	10,7	8,2	120,2	91,8
Tuproqqal'a	60,0	13,0	21,7	46,9	78,3
Xonqa	143,4	8,4	5,9	134,9	94,1
Xiva	174,0	0,0	-	174,0	100,0
Shovot	110,9	12,0	10,8	98,9	89,2
Yangiariq	80,4	11,2	13,9	69,2	86,1
Yangibozor	87,3	5,9	6,8	81,3	93,2



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta quollantirish ishlari ulushi
2023- yil yanvar- may oyi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **75,2** % yoki **1328,8** mlrd so'mlik qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

75,2

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **128,8** mlrd so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **91,0** %ni tashkil etdi.

91,0 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **755,9** mlrd so'mlik ishlar bajarildi yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **65,3** %ni tashkil etdi.

65,3%


Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **444,0** mlrd so'mni yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **94,9** % ni tashkil etdi.

94,9%



Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar
kesimida qurilish ishlari
2023- yil yanvar-may

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
Xorazm viloyati	1 766,1	1124,5	529,1	112,5
Urganch sh.	404,4	230,4	146,4	27,5
Xiva sh.	120,7	56,5	63,1	1,1
tumanlar:				
Bog'ot	106,3	74,8	26,8	4,7
Gurlan	81,7	36,8	16,3	28,7
Qo'shko'pir	110,7	77,5	31,3	2,0
Urganch	155,4	62,2	72,8	20,4
Hazorasp	130,9	109,0	18,0	3,9
Tuproqqal'a	60,0	39,4	18,5	2,1
Xonqa	143,4	84,5	52,1	6,8
Xiva	174,0	130,6	37,3	6,1
Shovot	110,9	92,6	12,9	5,4
Yangiariq	80,4	63,9	15,3	1,2
Yangibozor	87,3	66,4	18,2	2,7

2023- yilning yanvar-may oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari

Mrd. so'm

Urganch sh.

22,9



Xiva

9,9



Urganch

8,8



Xonqa

8,1



Ma'lumot uchun: qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Urganch shahri (404,4 mlrd. so'm), Xiva (174,0 mlrd. so'm), Urganch (155,4 mlrd. so'm) hamda Xonqa tumanlariga (143,4 mlrd. so'm) to'g'ri keladi.



XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Xorazm viloyati
statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi
Aloqa telefoni: (62)224-65-22

